DUKKAKLI MAHSULOTLARNI ETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Qudratov Alisher Alijanovich
Guliston davlat universiteti v.b. dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17441344

Annotasiya. *Dukkakli-don ekinlarining eng muxim xo‘jalik ahamiyatlaridan biri ularning ildizlarida tuganak bakteriyalarning tuplanishi va uning faoliyati natijasida atmosfera azotini uzlashtirib, biologik xoldagi azotni tuprokda tuplanishi xisoblanadi. Biologik azotning tuplanishiga ko‘pgina omillar-o‘simlikning turi, tuproq-iqlim sharoiti, tuproq muxiti, namligi kabilar ta'sir etadi. Dukkakli don ekinlari ayniqsa mosh ekiladigan erga fosforli va kaliyli o‘g‘itlarni solish juda foydalidir, chunki ular ildizda tuganak paydo bo‘lishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Mosh fosforli, kaliyli o‘g‘itlarga talabchan, bahorda ekilganda gektariga 30-40 kg azot, 60-90 kg fosfor, 30-60 kg kaliy solinadi. Shunga muvofik xolda bizning tajribalarda mosh navlari ildizlarida tuplangan tuganaklar soni bo‘yicha kuzatuv olib borildi va ko‘chat qalinligi oshib borishi va ekish me'yorini xam oshib borishiga muvofiq holda o‘zgarishini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy o‘sish, mosh, vitamin, iqtisodiy barqarorlik, eksport, qiymat, xosildorlik, o‘g‘itlar*

Abstract. *One of the most important economic benefits of leguminous crops is the accumulation of nodular bacteria in their roots and, as a result of its activity, they fix atmospheric nitrogen and accumulate biologically available nitrogen in the soil. Many factors affect the accumulation of biological nitrogen, such as the type leguminous crops are planted, especially mash, because they have a positive effect on the formation of root nodules. Moss is demanding on phosphorus and potash fertilizers, when planted in spring, 30-40 kg of nitrogen, 60-90 kg of phosphorus, 30-60 kg of potassium are applied per hectare. Accordingly, in our experiments, we observed the number of nodules on the roots of mash varieties and showed that it changes with increasing seedling thickness and increasing planting rate.*

Key words*: economic growth, mosh, vitamin, economic stability, export, value, productivity, fertilizers*

Аннотация. *Одним из важнейших хозяйственных преимуществ зернобобовых культур является накопление клубеньковых бактерий в их корнях, которые в результате своей деятельности фиксируют атмосферный азот и накапливают в почве биологически доступный азот. На накопление биологического азота влияют многие факторы, такие как вид растения, почвенно-климатические условия, почвенная среда, влажность. Очень полезно вносить в землю, где посажены зернобобовые культуры, фосфорные и калийные удобрения, особенно маш, поскольку они положительно влияют на образование корневых клубеньков. Мох требователен к фосфорным и калийным удобрениям.При весенней посадке на гектар вносят 30-40 кг азота, 60-90 кг фосфора, 30-60 кг калия. Соответственно, в наших опытах мы наблюдали количество клубеньков на корнях сортов маш и показали, что оно изменяется в соответствии с увеличением толщины сеянцев и увеличением нормы посадки.*

Ключевые слова*: экономический рост, мош, витамин, экономическая стабильность, экспорт, стоимость, производительность, удобрения.*

Kirish (Introduction)

Bugungi kunda dunyoning barcha davlatlarida oziq-ovqat ta'minoti masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Xususan, sayyoramizda ro‘y berayotgan global isish jarayoni tufayli ba'zi xududlarda suv toshqinlari, ba'zi xududlarda esa xaddan ziyod suv tanqisligi yuz berayotganligi, turli tabiiy ofatlarning ko‘payishi, birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi sohasiga o‘zining salbiy ta'sirini ko‘rsatmoqda.

Bu muammoni xal qilish bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlar evaziga dukkakliy don madsulotlari bilan ta'minlashga erishilmoqda. G‘alla ekinlaridan bo‘shagan maydonlardan oqilona foydalanish va qushimcha oziq-ovqat mahsulotlariini ishlab chiqarish maqsadida mosh ekinini takroriy etishtirish texnologiyasini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki so‘nggi yillarda moshning etishtirish maydoni kengayib bormoqda. Mosh - bu loviyaning Osiyo turlaridan bo‘lib, doni oziq-ovqatda keng qullanilishi, yuqori sifatli va mazali taomlar tayyorlanishi bilan ajralib turadi.

Mavzuga oid tahlil va natijalar

Mamlakatimizda dehqonchilik tarmog‘ini rivojlantirish uchun, dukkakli mahsulotlarni etishtirish samaradorligini oshirish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimizda dukkakli mahsulotlarni etishning iqtisodiy samaradorligini oshirish lozim. Bizning fikrimizcha, dukkakli mahsulotlarni etishtirish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari quyidagilardan iborat

1. Dukkakli mahsulotlarni etishtirish va sotish faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish.

2. Urug‘chilikni samarali tashkil etish, dukkakli mahsulotlarning hosildor navlarini etishtirish.

3. Dukkakli mahsulotlarni sug‘orishda resurstejovchi texnologiyalardan foydalanish.

4. Dukkakli mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish.

5. Dukkakli mahsulotlar hosildorligini oshishiga ta'sir etuvchi urug‘chilik va mineral o‘g‘itlar narxlarini optimallashtirish.

6. Dukkakli mahsulotlarini bozorga chiqarish va eksportni ta'minlaydigan kooperativ tuzilmalarni yaratish.

7. Dukkakli mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish hajmlarini belgilash uchun marketing tizimini takomillashtirish.

8. Xom ashyoni qayta ishlash, mahsulotni saqlash va tashish usullarini takomillashtirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dukkakli mahsulotlarni etishtirish samaradorligini oshirishda quyidagi asosiy yo‘nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (1.2-rasm):

1. Dukkakli mahsulotlarni bozorga chiqarish va sotishni ta'minlovchi kooperativ tuzilmalarni yaratish;


2. Dukkakli mahsulotlarning hosildorligi yuqori bo‘lgan navlarini etishtirish;

3. Dukkakli mahsulotlarning eksport geografiyasini kengaytirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda dukkakli mahsulotlarni etishtirishni rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- dukkakli mahsulotlarni etishtirish samaradorligini oshirish hamda assortimentini kengaytirish;

- dukkakli mahsulotlarni etishtirish va qayta ishlashga investisiyalarni jalb qilish;



1.2-rasm. Dukkakli mahsulotlarni etishtirish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari

- dukkakli mahsulotlarni etishtirishda erlardan samarali foydalanish;
- mosh etishtirishda intensiv texnologiyalarni joriy etish;
- urug‘ va mineral o‘g‘itlar ta'minlashni davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

Mahsulotlarni etishtiruvchi xo‘jaliklarning tarqoqligi, mahsulotlarni sotish uchun o‘rnatilgan kanallarning yo‘qligi, shahar oziq-ovqat bozorlariga kirishdagi ba'zi bir muammolar, shuningdek mahsulotlarni sotish va eksportdan kelayotgan asosiy foyda tadbirkorlar qo‘liga o‘tishiga olib keladi. Oqibatda dukkakli mahsulotlar etishtiruvchilarning iqtisodiy manfaatdorligi pasayib, mahsulotni sotish bahosining oshishiga olib kelmoqda. Bahorda esa dukkakli mahsulotlarga bo‘lgan talab uning taklifidan oshadi. Iste'molchilarning dukkakli mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish uchun ularni saqlash muddatlarini oshirish kerak.

Bu vaziyatdan chiqish uchun, bizningcha, dukkakli mahsulotlarni bozorga chiqarish va sotishni ta'minlovchi kooperativlarni tashkil etish lozim. Bunday sharoitda dukkakli mahsulotlar etishtiruvchilarning kooperasiyasi tovar ishlab chiqaruvchilarning birgalikdagi xo‘jalik faoliyati shakli sifatida individual faoliyatga nisbatan yuqori iqtisodiy natijalarga erishish uchun zarurdir.

Kooperativ (dukkakli mahsulotlarni etishtiruvchi xo‘jaliklar) muassislari kooperativ bilan shartnoma tuzadilar, unga ko‘ra etishtirilgan dukkakli mahsulotlarni saqlash va sotish uchun kooperativga beriladi. Natijada dukkakli mahsulotlarni sotishdan olingan barcha foyda xo‘jaliklarga qaytarilib, kooperativ muassislari o‘rtasida uning xo‘jalik faoliyatidagi ishtiroki hajmiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Bu esa foydaning vositachilar qo‘liga o‘tmasligini ta'minlaydi.

Ushbu kooperativni tashkil etishdan maqsad qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari o‘rtasida dukkakli mahsulotlar samaradorligini oshirish va bozorni sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish hamda mahsulotlarning eksportini kengaytirishdan iboratdir.

Taklif etilayotgangan dukkakli mahsulotlarni etishtirish va sotish kooperativi turli mulkchilik shaklidagi dukkakli mahsulotlarni etishtiruvchilar tomonidan tashkil etilib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarini ushbu kooperativ yordamida qondirish maqsadida ixtiyoriy ravishda birlashadi. Kooperativ ta'sischilari o‘zlarining huquqiy va iqtisodiy mustaqilligini saqlab qolgan holda, uni demokratiya tamoyillari asosida boshqaradilar.

Dukkakli mahsulotlarni etishtirish va sotish kooperativi faoliyatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

• kooperativga ixtiyoriy a'zolik;

• kooperativning ishlab chiqarish va boshqa xo‘jalik faoliyatida ishtirok etuvchi a'zolariga o‘zaro yordam ko‘rsatish va iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash;

• kooperativning foyda va zararlarini uning a'zolari o‘rtasida ularning shaxsiy mehnat ishtiroki yoki kooperativning xo‘jalik faoliyatidagi ishtirokini hisobga olgan holda taqsimlash;

• kooperativning a'zosi bo‘lmagan shaxslarning xo‘jalik faoliyatida ishtirok etishini cheklash;

• kooperativ faoliyatini demokratik asosda boshqarish (kooperativning bir a'zosi – bir ovoz);

• kooperativning barcha a'zolari uchun uning faoliyati to‘g‘risidagi ma'lumotlarning mavjudligi.

Dukkakli mahsulotlarni etishtirish va sotish kooperativi modelining elementlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- kooperativning tashkiliy tuzilmasi;
- kooperativni tashkil etishning iqtisodiy asoslari;
- kooperativ faoliyatining iqtisodiy mexanizmi;
- foyda va zararni taqsimlash sxemasi.

Kooperativni tashkil etish bosqichlarining tartibi va ketma-ketligi 1.3-rasmda keltirilgan. Kooperativning zaruriy sharti uning a'zolarining dukkakli mahsulotlarni etishtirishi va umumiy mahsulotning salmoqli qismini (70-80%) kooperativga berishi lozim.



Bunda tashkiliy qo‘mita kooperativning texnik-iqtisodiy loyihasi va ustav loyihasini tayyorlaydi hamda dastlabki umumiy tashkiliy yig‘ilishni o‘tkazadi. So‘ngra umumiy tashkiliy yig‘ilishda a'zolar kooperativ a'zoligiga qabul qilinadi, ustav tasdiqlanib, boshqaruv va kuzatuv kengashi tarkibi saylanadi. Kooperativni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun tegishli organlarga ariza beriladi.

1.3-rasm. Dukkakli mahsulotlarni etishtirish va sotish kooperativini tashkil etish tartibi

Dukkakli mahsulotlarni etishtirish va sotish kooperativini tashkil etish va keyinchalik faoliyat yuritish uchun dukkakli mahsulotlar etishtiruvchi xo‘jaliklar o‘zlarining mulkiy ulushlarini kooperativ pay fondiga birlashtirishlari kerak

Xulosa

Mamlakatimizda dukkakli mahsulotlarni etishtirish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish; dukkakli mahsulotlarning hosildor navlarini etishtirish; dukkakli mahsulotlarni sug‘orishda resurstejovchi texnologiyalardan foydalanish; dukkakli mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish; urug‘chilik va mineral o‘g‘itlar narxlarini optimallashtirish; dukkakli mahsulotlarini bozorga chiqarish va eksportni ta'minlaydigan kooperativ tuzilmalarni yaratish; dukkakli mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishda marketing tizimini takomillashtirish; xom ashyoni qayta ishlash, mahsulotni saqlash va tashish usullarini takomillashtirish.

Ushbu yo‘nalishlarni amalga oshirish uchun dukkakli mahsulotlarni bozorga chiqarish va sotishni ta'minlovchi kooperativlarni tashkil etish lozim. Ushbu kooperativni tashkil etishdan maqsad qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari o‘rtasida dukkakli mahsulotlar samaradorligini oshirish va bozorni sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish hamda mahsulotlarning eksportini kengaytirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Oripov R., Xalilov N. O‘simlikshunoslik. – Toshkent, 2006. – 245-248 b.
2. Pilov A.P. Loviya va mosh. – T.: O‘zbekiston, 1978. – 65 b.
3. Mavlyanova R.F., Sulaymonov B.A., Boltaev B.S., Mansurov X.G., Kenjabaev Sh.M. Mosh etishtirish texnologiyasi: Tavsiyanoma. – Toshkent, 2018.
4. “O‘zbekistonda innovasion texnologiyalar asosida mosh va oddiy fasolni takroriy qilib o‘stirish” bo‘yicha tavsiyalar. – Andijon, 2018. – 28 b.
5. Dospexov B,A, ―Metodika polevogo opita, Izd-vo «Kolos» Moskva 1985g
6. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari.Toshkent.2007 y.
7. Mavlanova R.F., Sulaymonov B.A., va boshqalar. Mosh etishtirish texnologiyasi T., 2018 yil
8. Tursunov S. O‘simlikshunoslik. T., “Ijod-press”,2019. 5. Mosh etishtirish texnologiyasi. Tavsiyanoma. Toshkent-2018 6. Oripov R., Xalilov N. O‘simlikshunoslik. – Toshkent.: 2006. –B.245-248
9. Dospexov B.A. Metodika polevogo opita. - M., 1985.
10. Kondratyuk V. Vesennyaya i predposevnaya obrabotka pochvi // Selskoe xozyaystvo Uzbekistana.- T., 1970.